

BIZNES ASOSLARI VA RUS TILI FANLARINI O'QITISHDA INTEGRATSIYA: NAZARIY VA AMALIYOTI

Abdullayeva Nigoraxon Rustamovna

Farg'ona viloyati Quva tuman politexnikumi

Biznes asoslari fani o'qituvchisi

Igamova Sayyoraxon Adxamovna

Farg'ona viloyati Quva tuman

politexnikumi rus tili fani o'qituvchisi

Annotatsiya

Mazkur maqolada fanlararo integratsiyaning dolzarbligi va ayniqsa, “Biznes asoslari” bilan “Rus tili” fanlarini birlashtirib o'qitishning pedagogik va amaliy jihatlari yoritilgan. Fanlararo integratsiyaning zamonaviy o'quv jarayonidagi o'rni, interaktiv metodlardan foydalanish, iqtisodiy va til kompetensiyalarini uyg'unlashtirish orqali o'quvchilar bilimini hayotiy faoliyatga yo'naltirish usullari bayon qilingan. Amaliy misollar asosida, rus tilida biznes terminologiyasini o'rganish, biznes reja tuzish, reklama matnlarini ishlab chiqish, mijozlar bilan muloqot qilish ko'nikmalarini shakllantirish bo'yicha samarali yondashuvlar taklif etiladi. Maqolada til va iqtisodiy savodxonlikni birgalikda rivojlantirish orqali bozor talablariga mos yetuk kadrlar tayyorlash istiqbollari ham ochib beriladi.

Kirish

Bugungi globallashuv davrida yosh avlodga nafaqat fan bo'yicha chuqur bilim berish, balki ularni hayotda muvaffaqiyatli shaxs sifatida shakllantirish asosiy vazifalardan biridir. Shu nuqtai nazardan, o'quv jarayonida fanlararo integratsiyaning ahamiyati ortib bormoqda. Ayniqsa, iqtisodiy bilimlar – “Biznes asoslari” fani bilan, til bilimlari – “Rus tili” fanining uyg'unligi o'quvchida kompleks bilim va ko'nikmalarni shakllantiradi.

1. Fanlararo integratsiyaning nazariy asoslari

Fanlararo integratsiya – bu o'quv jarayonida turli fanlar o'rtasidagi mantiqiy bog'liqlik asosida bilim berish usulidir. Integratsiya yordamida o'quvchilar nazariyani amaliyotda qo'llashni o'rganadi, tanqidiy fikrlash va ijodiy yondashuvni rivojlantiradi.

“Biznes asoslari” fani iqtisodiy terminlar, biznes yuritish, bozor tahlili, investitsiya, daromad va xarajatlar haqida bilim beradi. Rus tili esa bu bilimlarni xorijiy til vositasida ifodalashga o'rgatadi. Aynan shu nuqtada integratsiya samarali natija beradi.

2. Integratsiyalashgan darslarda qo'llaniladigan metodlar

1. Case-study (vaziyatli tahlil): O'quvchilarga biznes holatlari rus tilida taqdim etiladi. Ular muammoni tahlil qilish, hal qilish va rus tilida taqdimot qilishga o'rgatiladi.

2. Rol o'ynash usuli: Masalan, "Rus tilida biznes muzokaralari" mavzusida o'quvchilar "mijoz", "sotuvchi", "menejer" roliga chiqish qiladi.

3. Projekt usuli: Rus tilida kichik biznes loyihasi tuzish – mahsulot nomi, tavsifi, reklama matni va biznes rejasi ishlab chiqiladi.

4. Lug'at asosida ishlash: "Бизнес", "маркетинг", "предприниматель", "услуги", "бюджет", "реклама" kabi asosiy terminlarni o'zlashtirish.

3. Fanlarni integratsiyalash orqali:

O'quvchilar rus tilida iqtisodiy atamalarni bimalol ishlata oladi;

Rus tilida biznes reja tuzish, prezentatsiya qilish ko'nikmalari shakllanadi;

Kompaniyaga maktub yozish, reklama yaratish, tijorat suhbatini olib borish imkoniyatlari yaratiladi;

O'quvchilarda tilga va iqtisodga qiziqish ortadi.

4. Muammolar va ularning yechimlari

Xulosa

"Biznes asoslari" va "Rus tili" fanlarini integratsiyalash – bu zamonaviy ta'lim talabiga javob beruvchi, amaliy hayot bilan bog'langan, ko'p yo'nalishli yondashuvdir. U o'quvchilarga iqtisodiy bilimlarni xorijiy til vositasida ifodalash, ishbilarmonlik muhitida muvaffaqiyatli muloqot qilish va kreativ fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beradi. Kelajakda bu uslubni yanada takomillashtirish, har bir bosqich uchun maxsus metodik tavsiyalar ishlab chiqish dolzarb vazifadir.

"Avtomobillarga texnik xizmat ko'rsatish" fanini "Biznes asoslari" fani bilan integratsiyalash – o'quvchilarga zamonaviy mehnat bozorida o'z o'rnini topish, iqtisodiy mustaqillikka erishish va tadbirkorlik faoliyatini yuritish imkonini beradi. Bu kabi yondashuv kasbga yo'naltirilgan ta'limda yangi sifat bosqichini boshlab beradi. Integratsiyalashgan yondashuv pedagogik nuqtayi nazardan ham, iqtisodiy va ijtimoiy nuqtayi nazardan ham dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Axmedov I.T. – "Avtomobillarga texnik xizmat ko'rsatish asoslari", Toshkent, 2022.
2. Salimova M.A. – "Tadbirkorlik asoslari", Toshkent, 2021.
3. Karimov B.B. – "Kasb-hunar ta'limida integratsiyalashgan yondashuv", Ilm va taraqqiyot, 2023.
4. Sodiqova D.Sh. – "Texnik fanlar va biznes asoslari integratsiyasi", Texnik ta'lim jurnali, 2024.
5. UNESCO Report – "Vocational Education and Entrepreneurship", Paris, 2020.